

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ZUBAYDULLAYEVA MALIKA MURATOVNA**

**PAXTA – LAVSAN MATOLARINI KOLLAGEN METALL KOMPLEKSLARI  
BILAN BO‘YASHNING KIMYOVIY TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
chemical science**

**Zubaydullayeva Malika Muratovna**

Paхта – lavsan matolarini kollagen metall komplekslari bilan bo‘yashning kimyoviy texnologiyasini yaratish .....3

**Зубайдуллаева Малика Муратовна**

Создание химической технологии крашения хлопка – лавсановых полотен металлокомплексами коллагена.....21

**Zubaydullaeva Malika Muratovna**

Creation of chemical technologies for dyeing cotton-lavsan fabrics with collagen metal complexes.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....43**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**ZUBAYDULLAYEVA MALIKA MURATOVNA**

**PAXTA – LAVSAN MATOLARINI KOLLAGEN METALL KOMPLEKSLARI  
BILAN BO‘YASHNING KIMYOVIY TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga  
dastlabki ishlov berish**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/K745 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.ttyesi.uz](http://www.ttyesi.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rafikov Adxam Salimovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismoilov Ravshan Isroilovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Xasanova Saodat Xaitovana**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil 12 dekabr soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon-5. Tel.: (99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: (99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (213-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon-5. Tel.: (99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: (99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 26 noyabr kuni tarqatildi.  
(2024 yil 26 noyabrdagi 213-raqamli reyestr bayonnomasi).



**X.H. Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor.



**A.Z. Mamatov**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**D.B. Xudayberdiyeva**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy seminar raisi o'rinbosari, t.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda jahon to‘qimachilik bozorida sintetik va tabiiy tolalardan iborat aralash matolar va ulardan tayyorlangan buyumlarga talab yuqori bo‘lmoqda, to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari qatorida yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Bunday materiallarning dizayni, fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalari bo‘yicha qator afzalliklari ushbu holatni taqazo etadi. Xususan, paxta-lavsan tolalar aralashmasidan tayyorlangan matolarda paxtaning yuqori gigienik xususiyatlari va poliefir tolasining yuqori mexanik xususiyatlari tufayli kiyim-kechak va maishiy to‘qimachilik amaliyotida keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga aralash tolali matolarda tabiiy va sintetik tolalarni bo‘yovchi modda molekulalari bilan o‘zaro ta’sirlanish mexanizmidagi farqlarni sayqallash muammolarining yechimini topish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda to‘qimachilik bo‘yovchi moddalarini yaratish va mavjudlarini modifikatsiyalash, jumladan, tabiiy xom ashyo asosidagi bo‘yovchi moddalardan foydalangan holda ekologik toza texnologiya yaratib, aralash tolali to‘qimachilik matolarini kimyoviy pardoqlashga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, tabiiy va sintetik tolalarni bir xilda bo‘yaydigan bo‘yovchi moddalarning yangi sinfini yaratishga, bo‘yashning bir bosqichli texnologiyalarini joriy etishga, turli xil tolalarning xossalarni saqlagan holda, ranglarni yuqori intensivlik va barqarorlikka erishishga, suvli ishlov berishlardan so‘ng koloristik xarakteriskalarini saqlab qolishga alohida e’tibor berilmoqda. Sintetik bo‘yovchi moddalar va ko‘plab kimyoviy moddalardan foydalangan holda murakkab, ko‘p bosqichli texnologiyalardan tabiiy biologik parchalanuvchi moddalar yordamida oddiyroq texnologiyalarga o‘tish, mavjud muammolarni yechishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda birlamchi qayta ishlashdan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan to‘qimachilik klasterlari va yangi ishlab chiqarish quvvatlarining tashkil etilishi, mahalliy va xorijiy investorlarning jalb qilinishi, keng turdagi yuqori sifatli to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, uni mahalliyashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Shu bilan bir qatorda, kimyoviy tolalar va ular asosidagi aralash tolali matolarni ishlab chiqarishda keng quvvatli zamonaviy korxonalar yaratishga katta e’tibor berilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi<sup>1</sup> asosida Respublika to‘qimachilik sanoatini jadal rivojlanishini ta’minlash, sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, ularni yanada yirik tashqi bozorlarga olib chiqish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda, jumladan, tabiiy biopolimerlarning kompleks bo‘yovchi moddalaridan foydalangan holda paxta-lavsan

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi To‘g‘risida” gi Farmoni.

aralash tolali matolarini bo'yashning bir bosqichli kimyoviy texnologiyasini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi, 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 2-sentabrda PF-155-sonli "To'qimachilik sanoatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 16-sentabrda "Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4453-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining – VII "Kimyo. Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Paxta va poliefir matolarini bo'yash va bo'yashga tayyorlash jarayonlarini tadqiq etish bilan xorijda B.M. Hayit, M.A. Yusuf, H.M. Ibrohim, H.A. Ameen, A.M. Saloh, F.R. Oliveriya, D.A.J. De Oliveyra, F. Steffens, J.H.O. Nascimento, K.K.O.S. de Silva, A.P. Souto shug'ullanishgan. Ipak va paxta matolarini pardoqlash jarayonida o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlardan olingan tabiiy bo'yovchi moddalardan sintetik bo'yovchi moddalarga ekologik toza muqobil sifatida foydalanish Periyasamy A.P., Seitthanabutara V., Chumwangwapee N., Suksri A., Vongwuttanasatian T., Uddin M.A., Yasukava A., Fukuyama M., Iwai K., Jiangning Che, Xinghua Teng, Junling Ji ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tabiiy polimerlar, jumladan, kollagenning metall komplekslaridan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar Chengfey Yue, Changkun Ding, Jieliang Su. Bowen Cheng, Meifeng Li, Xiaoling Wang, Guidong Gong, Yi Tang, Yaoyao Chjan, Junling Guo, Xuepin Liao, Bi Shi va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasida aralash to'qimachilik matolarini kimyoviy pardoqlash masalalari boyisha tadqiqotlar M.Z. Abdukarimova, K.E. Ergashev, I.A. Nabiyeva, D.B. Xudoyberdiyeva va boshqalar tomonidan bajarilgan. Tabiiy ipak va sellyuloza metall komplekslaridan matolarni bo'yashda foydalanish Sh.G. Abdurahmonova, Sh.N. Rasulovalar ishlarida ko'rib chiqilgan, D.B. Sodiqovanning ishlari kollagen komplekslarini oraliq metall ionlari bilan sintez qilish va o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotchilar, asosan, tolalar aralashmasidan tayyorlangan matolarni bo'yashning ikki bosqichli usulini taklif qilishadi: tabiiy komponent faol yoki to'g'ridan-to'g'ri bo'yovchi modda bilan vannada bo'yalgan, sintetik komponent pigment bo'yovchi modda bilan alohida bo'yalgan. Tabiiy va sintetik tolalar aralashmasidan tayyorlangan to'qimachilik matolarini an'anaviy usullar yordamida bir xil, barqaror, bir bosqichli va ekologik toza bo'yash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot rejasining IL-4821091581 "Sellyuloza to'qimachilik materiallarini biokimyoviy modifikatsiyasi" (2022-2024) fundamental va A-12 "Tabiiy va sintetik payvand sopolimerlari asosida tolali materiallar ishlab chiqarish" (2015-2017) amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** paxta-lavsan aralash to'qimachilik matolarini kollagen metall komplekslari bilan bo'yashning kimyoviy texnologiyasini yaratishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

dastlabki komponentlarning turli massa nisbatlarida sintez qilingan xrom (III) va mis (II) ionlari bilan kollagen komplekslarining paxta, poliefir va paxta-lavsan matolarining bo'yash parametrlariga ta'sirini aniqlash;

kollagen kompleks bo'yovchi moddaning sellyuloza va poliefir tolalari bilan fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirini o'rnatish;

aralash materialni kollagen komplekslari bilan bo'yash uchun tayyorlash rejimlarini aniqlash;

bo'yash haroratining, muhit vodorod ko'rsatkichining kompleks bo'yovchi modda bilan turli tolalarni bo'yashda kimyoviy bog'lanish darajasini aniqlash;

paxta, poliefir va aralash tolali matolarning bo'yalgan namunalari fizik-kimyoviy xossalari, rang xususiyatlari, sovunli ishlov berishda rang chidamliligi, yorug'likka chidamliligini aniqlash;

paxta-lavsan matolarini kollagenning metall kompleks bo'yovchi moddasi bilan bir bosqichli bo'yashning texnologik sxemasi va parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kollagen eritmalari, tuzlar  $Cr_2(SO_4)_3$ ,  $CuSO_4$ , ular asosidagi koordinatsion birikmalar, paxta, poliefir va paxta-lavsan to'qimachilik materiallari, bo'yashga tayyorlash jarayonlari uchun reagentlar ( $NaOH$ ,  $H_2O_2$ ,  $Na_2SiO_3$ , SAM) olingan.

**Tadqiqotning predmetini** to'qimachilik materiallarini kollagen metall komplekslari bilan bo'yashning kimyoviy texnologiyasi, bo'yash sharoitlari, bo'yalgan to'qimachilik matolarining tarkibi, tuzilishi, mikrostrukturasi va xossalari.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada fizik-kimyoviy tadqiqot usullari, IQ-Furye spektroskopiya, rentgen fazali tahlili, skanerlovchi elektron mikroskopiya, differensial termik analiz, termogravimetrik tahlil, bo'yalgan namunalarning tashqi ta'sirlarga chidamlilik tahlili (nam ishlovga chidamlilik, yorug'lik, fizik-mexanik ta'sirlar) foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

an'anaviy ko'p bosqichli sintetik bo'yovchi moddalarga muqobil sifatida aralash paxta-lavsan to'qimachilik materiallarini samarali bir bosqichda bo'yash uchun tabiiy polimer – kollagen asosida yangi ekologik toza kompleks bo'yovchi modda yaratilgan;

komplers bo'yovchi modda paxta tolasi sellyulozasi bilan koordinatsion va ionli bog'lanishlar hosil qilish orqali kimyoviy o'zaro ta'sirlashuvga kirishi, bo'yovchi moddaning poliefir tolalarida mustahkamlanishi termofiksatsiya

jarayonida polietilentereftalat va kollagenning birga suyuqlanishi hisobiga sodir bo'lishligi isbotlangan;

paxta, lavsan va paxta-lavsan tolalarini kollagenning komplekslari bilan bo'yashda rang intensivligi va rang mustahkamligiga bo'yash parametrlari ta'sirining ahamiyati quyidagi qatorda kamayib borishligi (eritmaning pH ko'rsatkichi, komponentlarning dastlabki nisbati, fiksatsiya harorati) aniqlangan;

materialning tabiati, "kollagen- $Cr^{3+}$ " bo'yovchi moddaning tarkibi, bo'yash sharoitlari, bo'yalgan mato namunalariining fizik-kimyoviy va strukturaviy-mexanik xossalari, asosiy koloristik xususiyatlarining bog'liqliklari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

paxta-lavsan aralash matolarini kompleks bo'yovchi moddalar bilan bo'yashga tayyorlash uchun eritma tarkibi, konsentratsiya, harorat-vaqt rejimlari aniqlangan;

paxta-lavsan to'qimachilik matolarini kollagen va xrom (III) ionni kompleksi bilan bir bosqichli intensiv va bir tekisda bo'yalishi hamda mis (II) ionni kompleksi bilan kamroq intensivli bo'yalishi aniqlangan;

materialning tolalari yuzasida sifatli bo'yalish darajasini hosil qilish uchun kompleks bo'yovchi moddaning tarkibi, eritmaning konsentratsiyasi, bo'yash va termik barqarorlashtirish jarayonlarining vaqti, harorati, bo'yash eritmasining pH qiymati aniqlangan;

matolarning tuzilishi, morfologiyasi, fizik-kimyoviy, termik, koloristik xususiyatlarini o'rganish asosida aralash paxta-lavsan matolarni kollagen asosidagi yangi kompleks bo'yovchi modda bilan kimyoviy pardoqlashning texnologik sxemasi va texnologik rejimlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olingan natijalarning koordinatsion birikmalarning tuzilishi, fizik-kimyoviy va fazalararo o'zaro ta'sirlashuvlar nazariyasiga mosligi, ularning takrorlanuvchanligi, spektroskopik, elektron mikroskopik, SEM-EDS, fizik-kimyoviy, termik va rentgenfazaviy tahlil natijalari bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati koordinatsion birikmalar sintezi, bo'yalgan materiallar namunalariini bo'yash va termik ishlov berish jarayonlarining kimyoviy jihatlarini aniqlanganligi, kollagenning koordinatsion birikmasini kislotali muhitda protonlanishi, ba'zi metall ionlari bilan ishqoriy muhitda cho'kishi va eritma muhiti neytral bo'lganda bo'yovchi modda sorbsiyasining eng yuqori darajasi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati paxta-lavsan materiallarini kollagen metall komplekslari bilan bir bosqichli bo'yashning texnologik rejimlarini ishlab chiqilganligi, olingan namunalarning rang xususiyatlarini, sovun-sodali ishlov berishdan so'ng bo'yovchi moddaning sorbsiya darajasini va rang koordinatalarini amalda o'zgarmliligini, yorug'lik ta'siriga chidamliligini ta'minlash uchun matolarni eritmaga shimdirishning minimal va maksimal vaqti, eritmaning maqbul harorati, minimal, maksimal va optimal termofiksatsiya haroratlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.



**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** To‘qimachilik matolarini kollagen komplekslari bilan bo‘yashning kimyoviy texnologiyasi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Kollagen: $Cr_2(SO_4)_3$  metall kompleksi paxta-lavsan matolarini bo‘yash kimyoviy texnologiyasi “Turon teks” MChJ korxonasi amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024 yil 22 apreldagi 04/25-842-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada kollagenning metall komplekslari bilan aralash to‘qimachilik matolarini bir bosqichli, intensiv va bir tekis bo‘yash imkonini bergan;

Paxta matosini bo‘yash uchun kollagen: $Cr_2(SO_4)_3$  metall kompleksi “CLASS TEX” MChJ ishlab chiqarish korxonasi amaliyotiga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2024 yil 22 apreldagi 04/25-842-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, tashqi ta’sirlarga chidamli paxta matosining rangi ko‘k-kulrangga ega bo‘lish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda (shundan 2 tasi Scopus ma‘lumotlar bazasida) nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublikadagi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik matolarini polimerlarning metall komplekslari bilan bo‘yashga tayyorlash va bo‘yashning zamonaviy holati bo‘yicha analitik tahlil”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusiga oid chop etilgan ishlar manbalariga asoslangan ilmiy tadqiqotlar ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan. Aralash tolali to‘qimachilik matolarini kimyoviy pardozlash va to‘qimachilik matolarini bo‘yash uchun metall kompleks birikmalaridan, jumladan, kollagendan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Materiallar va tadqiqot usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlarining tavsiflari, to‘qimachilik matolarini kollagen metall komplekslari bilan bo‘yash texnikasi, bo‘yalgan to‘qimachilik matolarining fizik-kimyoviy xossalari va koloristik parametrlarini o‘rganish usullari bayon etilgan.

Kollagenning  $Cr^{3+}$ ,  $Cu^{2+}$  metall ionlari bilan komplekslarini olish uchun, 10% kollagen eritmasi, 20%  $Cr_2(SO_4)_3 \cdot 6H_2O$  va  $CuSO_4 \cdot 5H_2O$  tuzlarining kristallogidratlaridan foydalanilgan. To‘qimachilik matolarini bo‘yashga tayyorlash

quyidagilardan boshlanadi: oxordan tozalash va qaynatish, oqartirish, merserizatsiyalash (paxta tolasi uchun) (1-rasm).



1-rasm. Kollagen metall komplekslari bilan matoni bo'yash texnologiyasi

Dissertatsiyaning “Bo'yovchi modda sintezi va bo'yashning texnologik parametrlari” deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot natijalari muhokama qilingan.

Kollagenning  $Cr^{3+}$  va  $Cu^{2+}$  ionlari bilan kompleks bo'yovchi moddalari kollagen va metall tuzlarining uch xil massa nisbatida sintez qilib olindi: 25:75, 50:50 va 75:25. Bo'yovchi moddaning sorbsiya va fiksatsiya darajasiga komponentlarning boshlang'ich nisbati, bo'yovchi modda eritmasining pH qiymati va fiksatsiya harorati ta'siri o'rganildi (1-jadval).

1-jadval

Mato namunalariga yutilgan va fiksatsiya bo'lgan bo'yovchi moddaning massasi

| Jarayonlar      | Paxta matosi                                   |       |       | Poliefir matosi |       |       | Paxta-lavsan matosi |       |       |
|-----------------|--|-------|-------|-----------------|-------|-------|---------------------|-------|-------|
|                 | Kollagen: $Cr_2(SO_4)_3$ massa nisbatlari      |       |       |                 |       |       |                     |       |       |
|                 | 25:75  | 50:50 | 75:25 | 25:75           | 50:50 | 75:25 | 25:75               | 50:50 | 75:25 |
|                 | Namunadagi bo'yovchi moddaning massa ulushi, % |       |       |                 |       |       |                     |       |       |
| Bo'yash         | 14,4   | 13,4  | 9,8   | 22,6            | 18,0  | 11,2  | 15,3                | 10,8  | 9,0   |
| Termofiksatsiya | 13,5   | 12,9  | 9,3   | 21,4            | 17,1  | 10,7  | 14,0                | 10,1  | 8,6   |
| Yuvish          | 6,2  | 10,7  | 7,8   | 1,2             | 4,0   | 1,1   | 2,8                 | 4,4   | 2,2   |
|                 | Kollagen: $CuSO_4$ massa nisbatlari            |       |       |                 |       |       |                     |       |       |
|                 | 25:75  | 50:50 | 75:25 | 25:75           | 50:50 | 75:25 | 25:75               | 50:50 | 75:25 |
|                 | Namunadagi bo'yovchi moddaning massa ulushi, % |       |       |                 |       |       |                     |       |       |
| Bo'yash         | 13,2   | 11,7  | 10,4  | 20,2            | 18,5  | 16,4  | 17,8                | 16,4  | 11,7  |
| Termofiksatsiya | 12,6   | 11,1  | 9,8   | 16,7            | 17,0  | 15,7  | 14,6                | 15,5  | 10,9  |
| Yuvish          | 2,4  | 5,1   | 3,8   | 0,0             | 0,1   | 0,0   | 0,2                 | 0,5   | 0,4   |


Bo'yovchi moddani matoga kimyoviy bog'lanishi uchun haroratning ta'siri 120-230°C oralig'ida o'rganildi (2 va 3-rasm).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kompleks bo'yovchi modda uchun eng samarali fiksatsiya harorati - 140°C tanlangan.

Uch xil mato tolalarini kollagen- $Cr^{3+}$  kompleks bo'yovchi modda bilan bo'yashda, fiksatsiya darajasiga ta'sirini aniqlashda mato tolalarida 9-11 % bo'yovchi modda qoldig'i bilan pH=6-8 (4,5-rasm) qiymatlarida yuqori yutilish ko'rsatkichlariga erishildi.


Kollagen- $Cu^{2+}$  kompleksi bilan matolarni bo'yashda qoniqarsiz natijalar olindi.

Bo'yovchi moddani mato tolalariga mustahkamlash uchun fiksatorlar sifatida kompleks bo'yovchi modda massasiga nisbatan 5% ba'zi bifunksional (rezorsin, qaxrabo kislotasi, glitserin) birikmalar sinovdan o'tkazildi.




1. Bo'yashdan so'ng; 2. Termofiksatsiyadan so'ng; 3. Sovuq suvda yuvishdan so'ng;  
4. Sovun va sodali yuvishdan so'ng;

**2-rasm.** Paxta (A), poliefir (B) va paxta-lavsan (C) matolarida kollagen- $Cr^{3+}$  bo'yovchi moddasining massa ulushini termofiksatsiya haroratiga bog'liqligi




**3-rasm.** Paxta (A), poliefir (B) va paxta-lavsan (C) matolarida kollagen- $Cu^{2+}$  bo'yovchi moddasining massa ulushini termofiksatsiya haroratiga bog'liqligi



1. Bo'yashdan so'ng; 2. Termofiksatsiyadan so'ng; 3. Sovuq suvda yuvishdan so'ng;  
4. Sovun va sodali yuvishdan so'ng;

**4-rasm.** Paxta (A), poliefir (B) va paxta-lavsan (C) matolarida kollagen- $Cr^{3+}$  bo'yovchi moddasining massa ulushini pH ga bog'liqligi



**5-rasm.** Paxta (A), poliefir (B) va paxta-lavsan (C) matolarida kollagen- $Cu^{2+}$  bo'yovchi moddasining massa ulushini pH ga bog'liqligi


Glitserindan tashqari boshqa bifunksiyal birikmalardan foydalanish bo'yovchi moddani selluloza tolalariga mustahkam bog'lanmasligiga olib keladi. Paxta, poliefir va paxta-lavsan matolarini kollagen: $Cr_2(SO_4)_3$  kompleks birikmasi bilan

bo'yashda fiksator sifatida glitserin va kompleksning birlamchi eritmasidan foydalanganda qoniqarli natijalar olindi.

Kollagen:  $Cu^{2+}$  kompleksi sellyuloza va poliefir tolalarida kollagenning  $Cr^{3+}$  bilan kompleksiga nisbatan yomonroq mustahkamlanadi. Bundan tashqari, fiksatsiyalovchi qo'shimchalardan foydalanganda, mis (II) ionli kompleks bilan fiksatsiya yaxshi samara bermadi.

Keyingi tadqiqotlarni o'tkazish uchun na'munalarning xossalari aniqlashda pH=6-8 va fiksatsiya harorati 130-140°C bo'lganda, massa nisbati kollagen:  $Cr_2(SO_4)_3 = 50:50$  bo'lgan kompleks bo'yovch moddasi bilan bo'yalgan paxta, poliefir va paxta-lavsan matolari tanlab olindi.

Kollagenning  $Cr^{3+}$  kompleks bo'yog'ini paxta, poliefir va paxta-lavsan mato tolalari bilan o'zaro ta'siri IQ-Furye spektri yordamida o'rganildi. Paxta matosining IQ-Furye spektrlarida sellyulozaga xos bo'lgan valent ( $\nu$ ) va deformatsion ( $\delta$ ) tebranishlarining yutilish yo'lkalari aniqlandi (6-rasm): 3333  $sm^{-1}$  da  $-\nu_{O-H}$ ; 2899  $sm^{-1}$  da  $-\nu_{C-H}$ , 1644  $sm^{-1}$  da  $-\nu_{C-O}$ ; 1427 va 1360, 661-434  $sm^{-1}$  da  $-\delta_{C-H}$ ,  $\delta_{O-H}$ ; 1334, 1314, 1280, 1203-897  $sm^{-1}$  da  $-\nu_{C-O} + \delta_{C-O}$ .




6-rasm. Paxta matosini kollagen- $Cr^{3+}$  kompleksi bilan bo'yashdan oldingi (A) va bo'yashdan keyingi (B) IQ-Furye spektri.

Bo'yalgan namunada kislorod, azot bilan xrom bog'larining tebranishlari bilan bog'liq bo'lgan 1540  $sm^{-1}$  da kollagenning  $\delta_{N-H}$  (amid II chizig'i), shuningdek, 664-432  $sm^{-1}$  sohasida bir nechta past intensivlikdagi yangi yutilish chizig'i paydo bo'ladi. Xrom uch valentli holatdan olti valentli holatga o'tganda, sellyuloza kislorodi va kollagen kislorodi va azoti bilan koordinatsion bog'larni hosil qiladi. Bu kollagen metall kompleksining bir qismini sellyuloza tolalari bilan kuchli bog'lanishiga olib keladi.


Poliefir matolarining IQ-Furye spektrlarida 2967, 2916, 2850  $sm^{-1}$  da  $-\nu_{C-H}$ ; 1712  $sm^{-1}$  da  $-\nu_{C=O}$ ; 1577-1339  $sm^{-1}$  sohasida va 792-432  $sm^{-1}$  da  $-\delta_{C-H}$ ; 1240-846  $sm^{-1}$  sohasida  $-\nu_{C-O}$  kabi polietilentereftalatning o'ziga xos bo'lgan yutilish chiziqlari aniqlandi (7-rasm). Bo'yalgan poliefir matosining IQ-Furye spektri bo'yalmagan (7-rasm (A)) namunasi bilan deyarli bir xil, yagona o'zgarish - keng,

past intensivlikdagi yutilishi chizig'ida kollagen bo'yovchi moddasining ko'rinishi  $\nu_{O-H}$ ,  $\nu_{N-H}$ . Past tebranishli chastotalar sohasida xrom va polietilentereftalat kislorodi o'rtasida koordinatsion bog' yo'qligini ko'rsatadigan birorta ham yangi chiziq paydo bo'lmaydi. Ko'rinib turibdiki, kollagen va xrom kompleksi bo'yalgan mato namunasida temperatura ta'siri ostida o'zaro erishi tufayli poliefir tolalarning mikrog'ovaklarida saqlanib qoladi.




7-rasm. Kollagen- $Cr^{3+}$  kompleksi bilan poliefir matosini bo'yashdan oldingi (A) va bo'yashdan keyingi (B) IQ-Furye spektri.

Paxta va poliefir aralash tolali matolarning IQ-Furye spektridagi sellyulozada kamroq darajada va polietilentereftalatda ko'proq darajada yutilish chiziqlari kuzatiladi (8-rasm). Paxta-lavan matosining bo'yalgan namunasi IQ-Furye spektrida kichik o'zgarishlar, shu jumladan  $1161-1033\text{ sm}^{-1}$  va  $664-456\text{ sm}^{-1}$  sohalarida sezilarsiz yutilish chiziqlari paydo bo'lishi aniqlandi.




8-rasm. Paxta-lavan matosini kollagen- $Cr^{3+}$  kompleksi bilan bo'yashdan oldingi (A) va bo'yashdan keyingi (B) IQ-Furye spektrlari.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida kollagenning kompleks bo'yog'ini to'qimachilik tolalari bilan o'zaro ta'siri sxemasi taklif qilingan. Kompleksning markaziy ioni bilan koordinatsion bog'langan kollagenning azot va kislorod atomlari, shuningdek, suvning kislorod atomlari joylashgan. Termik fiksatsiya jarayonida kristallizatsion suv ligand sifatida sellyulozaning gidroksil guruhi bilan almashinishi mumkin. Ushbu reaksiyani quyidagicha ifodalash mumkin:



**Paxta tolasi sellyulozasi bilan kollagen:Cr<sup>3+</sup> kompleks bo'yovchi moddaning o'zaro ta'siri formulasi**

Dissertatsiyaning “Bo'yalgan gazlama namunalarining tarkibi, tuzilishi va xossalari” deb nomlangan to'rtinchi bobida SEM EDS yordamida tolalar yuzasida bo'yovchi modda elementlari taqsimlanishining bir xilligini aniqlash, TGA va DTA ning issiqlik xossalari, faza holati, rang koordinatalari, yuvishga va yorug'likka chidamliligi, bo'yalgan mato namunalarining fizik-mexanik xossalari ko'rib chiqilgan.




**9-rasm.** SEM EDS: kollagen-Cr<sup>3+</sup> kompleksi bilan bo'yalgan paxta-lavsan matosining termofiksatsiya (A), suvda yuvish (B), sovun-sodali yuvish (C) lardan so'ng yuzasida elementlarning tarkibi, sirt yuzasida taqsimlanishi va sirt morfologiyasi.

Bo‘yalgan matolar (9-rasm) asosan 5-6 elementni o‘z ichiga oladi: uglerod, kislorod, azot, xrom, oltingugurt, natriy (vodorod SEM EDS spektrlarida qayd etilmaydi). Uglerod va kislorod paxta, poliefir va kollagen tarkibida mavjud; azot va kislorod - kollagenda; xrom, kislorod va oltingugurt - xrom (III) sulfatda; ishqor va osh tuzida, ular xom terini qayta ishlashda ishlatilgan.

Barcha yuvish jarayonlaridan so‘ng faqat to‘rtta element qoladi: uglerod, kislorod, azot va xrom. Matolarning tola g‘ovaklarida kompleks bo‘yovchi moddaning tarkibidagi azot va xrom bir me‘yorda taqsimlanadi.

Termogravimetrik (TGA) differensial termik (DTA) analiz usuli namunaning termik xossalari, shuningdek, termofiksatsiya yoki boshqa termo ta'sirlar paytida sodir bo‘ladigan jarayonlar haqida ma'lumot beradi. Bo‘yalgan va bo‘yalmagan paxta matosining TGA egri chizig‘lari uch qismdan iborat. Bo‘yalmagan namunada TGA egri chizig‘ining birinchi qismi 299°C gacha, adsorbsiyalangan suvning chiqishi tufayli massa yo‘qotishi 7,11% ni tashkil qiladi. Ikkinchi qism 299-384°C massa yo‘qotish 85,4% ni tashkil qiladi. Uchinchi qism 384-602°C oralig‘ida, massa yo‘qotish – 7,49% ni tashkil qiladi. Sezilarli endotermik issiqlik ta'siri (-826,16 J / g) da paxta matosi koks qoldig‘isiz 100% parchalanadi, bu eng yuqori harorat 353,72°C ni tashkil etadi. Birinchi navbatda, aniqlangan issiqlik effekti sellulozaning glikozid bog‘larining uzilishi bilan birga, to‘liq termik destruksiyasiga olib keladi.




**10-rasm.** Paxta matosining kollagen:Cr<sup>3+</sup> metall kompleksi bilan bo‘yashdan oldingi (A) va bo‘yashdan keyingi (B) TGA va DTA egri chiziqlari.

Kollagen-Cr<sup>3+</sup> kompleksi bilan bo‘yalgan paxta matosining TGA va DTA egri chizig‘lari ba’zi o‘zgarishlardan tashqari, bo‘yalmagan namunani bilan deyarli bir xil. Barcha jarayonlarning boshlanishi, oxiri va eng yuqori haroratlari biroz pastroq haroratli sohaga siljiydi. Parchalanish jarayonining endotermik issiqlik effekti (-656,97 J/g) bo‘yalmagan namunani bilan biroz kamroq. Bu o‘zgarishlar selluloza tolalari yuzasida kollagen kompleksining mavjudligi bilan bog‘liq. Agar bo‘yalmagan namuna butunlay parchalansa, bo‘yalgan namunada boshqa ko‘rinish kuzatiladi. Bo‘yalgan paxta mato namunasi umumiy massa yo‘qotishi dastlabki massaning 94,04% ni tashkil qiladi. Koks qoldig‘ining tarkibi taxminan oksid yoki sulfat shaklida 6% xrom ionlarini o‘z ichiga oladi.


Paxta – poliefir matolarining TGA va DTA egri chiziqlari murakkabroq bo‘lib, kuzatilgan hodisalar matoning tarkibi 80% poliefir va 20% sellulozaga mos keladi (11-rasm). Bo‘yalmagan va bo‘yalgan paxta - poliefir mato namunalarining TGA egri chizig‘i uch qismdan iborat. Birinchi qismda 300-320°C haroratgacha massa

yo‘qotishi paxta matosiga nisbatan sezilarsiz (2-2,5%), uch-to‘rt marta kam aniqlandi. Bu poliefir tarkibida adsorbsiyalangan suv yo‘qligi, faqat sellyuloza namlikni o‘zlashtirishi bilan izohlanadi. 300-380°C oralig‘ida massa yo‘qotish (14-18%) sellyulozaning termik destruksiyasiga mos keladi. 380°C dan yuqori haroratlarda poliefir tolasining sezilarli darajada massa yo‘qotishi (67-71%) termik destruksiyasiga to‘g‘ri keladi. Sellyuloza va poliefirni destruksiya jarayonlari endotermik issiqlik effektlari bilan birga boradi. Sellyuloza destruksiyasining issiqlik effekti (-25,73 J/g) bo‘yalmagan paxta – poliefir matolari namunasi uchun bo‘yalgan namunaga nisbatan taxminan ikki baravar kam (-56,93 J/g).



**11-rasm.** Paxta-lavsan matosining kollagen:Cr<sup>3+</sup> metall kompleksi bilan bo‘yashdan oldingi (A) va bo‘yashdan keyingi (B) TGA va DTA egri chiziqlari.

Ko‘rinishicha, sellyulozaning parchalanish sohasi bo‘yovchi modda kollageni bilan to‘g‘ri kelganligi sababli bu harorat oralig‘ida amalda bo‘yalgan namunaning destruksiyasi yuqori intensivlikka ega bo‘ladi. Bo‘yalmagan poliefir matosi destruksiyasining issiqlik effekti (-77,64 J/g) bo‘yalgan namunaga nisbatan (-22,47 J/g) sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Poliefir tolalar yuzasida bo‘yovchi modda mavjudligi poliefir parchalanish intensivligini pasaytiradi. Paxta matosidan farqli o‘laroq, aralash tolali matolarni termik destruksiyasi jarayonida 11,66% koks qoldig‘i hosil bo‘ladi, bu poliefir komponentining qatronlanish natijasidir. Xrom ionlari mavjudligi sababli, sinovdan so‘ng bo‘yalgan aralash mato namunasi qoldig‘i yanada kattaroq (12,5%).



**12-asm.** Paxta-lavsan matosini kollagen-Cr<sup>3+</sup> metall kompleksi bilan bo‘yashdan oldingi (A) va bo‘yashdan keyingi (B) rentgenogrammalari.



Paxta va paxta-lavsan matolarining bo'yalmagan va bo'yalgan namunalarining rentgen fazali tahlili o'tkazildi. Barcha o'rganilgan namunalar amorf va kristall tuzilishga ega. Namunalarning kristall qismlaridagi signallar qiymatlari yaqin diffraksiya burchaklarida, ammo har xil intensivlikda paydo bo'ladi.


Paxta – poliefir matosi uchun kristall fazaning eng intensiv signali ( $2\theta$ )  $43,83^\circ$  diffraksiya burchagida kuzatildi: absolyut intensivlik - 2161, nisbiy - 100%. Boshqa signallarning intensivligi quyidagi tartibda kamayadi: diffraksiya burchagi  $64,19^\circ$  da – 1529 (71%),  $22,91^\circ$  da – 539 (25%),  $23,20^\circ$  da – 524 (24%),  $26,25^\circ$  da – 511 (24%),  $25,85^\circ$  da – 495 (23%),  $22,66^\circ$  da – 488 (23%),  $26,55^\circ$  da – 462 (21%),  $25,55^\circ$  da – 431 (20%),  $22,41^\circ$  da – 377 (17%),  $26,85^\circ$  da – 350 (16%),  $23,71^\circ$  da – 316 (15%),  $17,37^\circ$  da – 296 (14%),  $16,82^\circ$  da – 285 (13%), qolganlari kamroq.

**2-jadval**

**Mato namunalarining kristallanish darajasi**

| Mato turi           | Aniqlash usuli va kristallanish darajasi, % |                  |                     |                  |
|---------------------|---|------------------|---------------------|------------------|
|                     | DTA usuli                                   |                  | Rentgenofazali usul |                  |
|                     | Bo'yashdan oldin                            | Bo'yashdan keyin | Bo'yashdan oldin    | Bo'yashdan keyin |
| Paxta matosi        | -   | -                | 51,9                | 45,2             |
| Paxta-lavsan matosi | 44,9  | 42,0             | 43,5                | 40,5             |

Bo'yalgan paxta – poliefir mato uchun kristall fazaning eng intensiv signali bo'yalmagan namunaga qaraganda pastroq absolyut qiymat (1409) bilan  $64,19^\circ$  diffraksiya burchagida kuzatiladi. Boshqa signallarning intensivligi quyidagi tartibda kamayadi:  $43,83^\circ$  da diffraksiya burchagida – 563 (40%),  $23,25^\circ$  da – 368 (26%),  $23,01^\circ$  da – 359 (25%),  $22,81^\circ$  da – 348 (25%),  $26,00^\circ$  da – 337 (24%),  $26,25^\circ$  da – 317 (22%),  $23,55^\circ$  da – 295 (21%),  $26,50^\circ$  da – 284 (20%),  $22,51^\circ$  da – 282 (20%). Paxta – poliefir mato uchun rangli namunalarning kristallik darajasi bo'yalmagan namunalarga qaraganda kamroq (2-jadval).



**13-rasm.** Paxta – poliefir matolarining termofiksatsiya (A) va yuvishdan keyingi (B) rang koordinatalari.

2-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, paxta tolalarining kristallik darajasi paxta-lavsan matosiga qaraganda bir oz yuqori. Bundan tashqari, bo'yashdan keyin ikkala mato uchun kristallik darajasi taxminan 3-6% ga kamayadi. Turli usullar

bilan topilgan paxta-lavsan matosining kristallik darajasining qiymatlari yaqin bo‘lib chiqishi aniqlandi. Barcha holatlarda bo‘yovchi moddani qo‘llash to‘qimalarning kristallik darajasining biroz pasayishiga olib keladi.

Bo‘yalgan matolarning rang koordinatalarini aniqlash natijalari 13-rasm va 3-jadvalda keltirilgan:

**3-jadval**

**Bo‘yalgan namunalarning rang koordinatalarining qiymatlari, suratda – termofiksatsiyadan keyin, maxrajda – yuvishdan keyin.**

| Mato turi        | $L^*$ | $a^*$ | $b^*$  | $C^*$ | $h^\circ$ | K/S  |
|------------------|-------|-------|--------|-------|-----------|------|
| Paxta            | 66,18 | -2,52 | -5,51  | 6,05  | 209,43    | 1,40 |
|                  | 65,89 | -3,14 | -1,77  | 3,61  | 205,11    | 1,40 |
| Poliefir         | 68,11 | -0,41 | -10,27 | 10,28 | 271,54    | 1,01 |
|                  | 72,62 | 0,35  | -13,32 | 13,33 | 267,73    | 0,5  |
| Paxta – poliefir | 71,16 | -2,51 | -5,38  | 5,93  | 245,03    | 1,02 |
|                  | 71,23 | -2,55 | -5,81  | 6,34  | 246,28    | 1,02 |

Tashqi ko‘rinishidan barcha uchta bo‘yalgan mato taxminan bir xil kulrang-ko‘k rangga ega. Sinovlar ko‘rsatganidek, namunalarning rang koordinatalari bir oz farq qiladi, ya'ni turli xil matolarda ranglarning turli xil turlari paydo bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, rang koordinatalariga bo‘yovchi moddaning paxta va poliefir tolalari bilan bog‘lanishining turli tabiati ta'sir qiladi. Yuvishdan keyin turli natijalarga erishildi. Bo‘yalgan paxta va paxta-lavsan matolari uchun  $\Delta E$  mos ravishda 0,35 va 0,19 ni tashkil etdi. Bu yuvishdan oldin va keyin rang o‘rtasidagi farqni ajratib bo‘lmaydiganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, poliefir matoning  $\Delta E$  ko‘rsatkichi 5,44 ni tashkil etdi, bu yuvishdan keyin namuna rangining sezilarli o‘zgarishini ko‘rsatadi.

Bo‘yalgan mato namunalarning yuvishga va yorug‘likka chidamliligi besh balli tizim yordamida kulrang etalon yordamida baholandi (4-jadval).

**4-jadval**

**Kollagen- $Cr^{3+}$  kompleksi bilan bo‘yalgan matolarning yuvishga va yorug‘likka chidamliligi**

| Mato turi        | Yuvishga chidamligi |   |   | Yorig‘likka chidamligi |
|------------------|---------------------|---|---|------------------------|
| Paxta            | 4-5                 | 5 | 5 | 5                      |
| Poliefir         | 4                   | 5 | 5 | 4                      |
| Paxta – poliefir | 5                   | 5 | 5 | 5                      |

Olingan natija tolalar aralashmasidan tayyorlangan matoga murakkab bo‘yovchi moddaning yetarlicha kuchli bog‘lanishini, ya'ni, paxta tolalari ion va koordinatsion aloqalar tufayli metall ionlari bilan, poliefir tolalari kollagen bilan o‘zaro erishi natijasida bog‘lanishini tasdiqlaydi.

Paxta-lavsan matoning eng muhim fizik-mexanik xususiyatlarining ba'zi bir qiymatlari 5-jadvalda keltirilgan. Tolalarning tabiatiga ko‘ra, aralash paxta-lavsan mato mexanik xossalari yuqori qiymatlariga ega. Kollagen: $Cr_2(SO_4)_3$  kompleks

bo'yovchi modda bilan bo'yalgan paxta-lavsan aralashmasidan tayyorlangan matoning havo o'tkazuvchanlik xususiyati o'zgarishsiz qoladi. Aralash matodagi paxta sellyulozasi tola ichidagi bo'yovchi moddani so'rib oladi, ya'ni so'rilish va diffuziya jarayonlari sodir bo'ladi. Tolalar orasi g'ovakli bo'lib qoladi va g'ovaklilik hatto ortadi. Poliefir tolalarda adsorbsiya sodir bo'ladi, bo'yovchi modda tolalar yuzasida bo'ladi. Ammo bu holatda ham mato havo oqimining erkin kirib borishi uchun yetarlicha g'ovakka ega bo'ladi.

5 – jadval

**Paxta-lavsan matolarining kollagen:Cr<sub>2</sub>(SO<sub>4</sub>)<sub>3</sub> metallokompleksi bilan bo'yashdan oldingi va keying fizik-mexanik ko'rsartgichari.**

| Ko'rsatkichlar                                | Paxta-lavsan matosi |       |                  |       |
|---|---------------------|-------|------------------|-------|
|   | Bo'yashdan oldin    |       | Bo'yashdan keyin |       |
| Havo o'tkazuvchanlik,<br>$dm^3/m^2 \cdot sek$ | 9,3                 |       | 9,3              |       |
| Ishqalanish, sikllar                          | 23500               |       | 27000            |       |
| G'ijimlanmaslik, %                            | Tanda               | Arqoq | Tanda            | Arqoq |
|   | 36,6                | 48,8  | 43,3             | 51,1  |
| Uzilishdagi cho'zilish, mm                    | 5,4                 | 4,0   | 6,7              | 4,6   |
| Uzilish kuchi, N                              | 1132                | 806   | 1077             | 743   |

Aralash tolali mato uchun ishqalanishga chidamlilik 19% ni tashkil qiladi. Boshqa tomondan, aralash matoning uzilishdagi kuchi 20-22% ga yomonlashadi. Demak, xrom atomlari juda qattiq bo'lib, matoning abraziv xossalarini oshiradi. Biroq, eritma muhiti va bo'yovchi moddani yuqori termofiksatsiya harorati uzilish kuchini kamayishiga olib keladi, ammo bu ko'rsatkich standart talablarga mos keladi. Aralash matoning uzilishdagi chozilishi biroz kamayadi. Shunday qilib, matolarni kollagen metall kompleks bo'yovchi modda bilan bo'yashdan so'ng, ularning fizik-mexanik xususiyatlari sezilarli darajada o'zgarmaydi, o'zgarishlar standart ko'rsatkichlaridan oshmaydi.

## XULOSA

1. To'qimachilik matolari uchun yangi tabiiy bo'yoqlar qoramol terisidan olingan kollagenni oraliq metall tuzlarining suvli eritmasi bilan reaksiyaga kiritish orqali sintez qilinib olindi. Kollagen metall komplekslari paxta, poliefir va ayniqsa paxta-lavsan aralash tolali matolarini kimyoviy pardoqlashda an'anaviy bo'yovchi moddalarga munosib muqobil bo'lishi mumkin.

2. Kimyoviy pardoqlash jarayonida matolarning tolalariga bo'yovchi moddaning sorbsiya va fiksatsiya darajasiga turli rejimlarni ta'siri aniqlandi. Kollagen va metall tuzini teng massa nisbatda olinganda, eng yuqori ko'rsatkichlarga erishildi. Kollagen-Cr<sup>3+</sup> kompleksi pH=6-8 da mato yuzasida 12-19% sorbsiyalanadi, 140°C da fiksatsiya qilinganda tolalardagi bo'yovchi moddaning massa ulushi 11-18% ni,

sovuq va issiq suvda yuvilgandan so'ng 8-12% ni, sovun-sodali eritmada yuvilgandan so'ng bo'yovchi modda qoldig'i 8-11% tashkil etadi.

3. Kompleks bo'yovchi moddasi sellyuloza tolalari bilan asosan ion va koordinatsion bog'lar orqali, poliefir tolalari bilan esa - asosan o'zaro erish natijasida bog'lanadi. Bo'yash va termofiksatsiya jarayonida kompleks bo'yovchi moddadan kristallanish suvi ajralib chiqadi va shu yerda sellyuloza gidroksil guruhining kislorod atomi va kompleks bo'yovchi moddaning xrom ioni o'rtasida yangi koordinatsion bog'lar hosil bo'ladi.

4. Paxta, poliefir va aralash tolali matolarning bo'yalgan namunalarining fizik-kimyoviy, issiqlik va struktura-fazaviy xossalari, rang xususiyatlari, sovun bilan ishlov berishda rang chidamliligi, yorug'likka chidamliligi aniqlandi. Bo'yalgan paxta-lavsan, paxta va poliefir matolarning yuvishdan oldin va keyin  $\Delta E$  bilan ifodalanib, ranglari o'rtasidagi farq mos ravishda 0,19, 0,35 va 5,44 ni tashkil qiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, dastlabki ikki holatda rang amalda o'zgarmaydi, lekin poliefir matosida yuvish paytida rang o'zgarishi mavjud. Aralash paxta-lavsan va paxta matolari rangning yuvishga va yorug'likka chidamliligi bo'yicha yuqori baholanadi.

5. Ishlab chiqilgan kimyoviy texnologiya ishlab chiqarish chiqindilari asosida olingan kompleks bo'yovchi modda yordamida aralash paxta-lavsan gazlamalarini pardoqlash jarayonida, foydalanish uchun mumkin bo'lgan reaktivlar mavjudligi va energiya sarfini kamaytirish, sohaning ayrim ekologik va iqtisodiy muammolarini hal etishga xizmat qilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning afzalligi shundan iboratki, texnologik yechimlarni qayta va takror ishlatish, oqava suvlarni tozalash masalalarini yechishda ijobiy hal qilib beradi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ЗУБАЙДУЛЛАЕВА МАЛИКА МУРАТОВНА**

**СОЗДАНИЕ ХИМИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ КРАШЕНИЯ ХЛОПКО –  
ЛАВСАНОВЫХ ПОЛОТЕН МЕТАЛЛОКОМПЛЕКСАМИ КОЛЛАГЕНА**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2024.1.PhD/K745**

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.ttyesi.uz](http://www.ttyesi.uz)) в информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Рафиков Адхам Салимович**  
доктор химических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Исмаилов Равшан Исраилович**  
доктор химических наук, профессор

**Хасанова Саодат Хаитовна**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Ташкентский химико – технологический институт**

Защита диссертации состоится 12 декабря 2024 года в 10<sup>00</sup> часов на заседании разового Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Ташкентском Институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, ул. Шохжахон-5. Тел.: (99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: (99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edui.uz](mailto:titlp_info@edui.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, ул. Шохжахон-5. Тел.: (99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: (99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edui.uz](mailto:titlp_info@edui.uz)) (зарегистрирована за № 213)).

Автореферат диссертации разослан 26 ноября 2024 года.  
(Реестр протокола рассылки № 213 от 26 ноября 2024 года).



**Х.Х. Камилова**

Председатель разового Учёного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор



**А.З. Маматов**

Ученый секретарь разового Учёного совета по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

**Д.Б. Худайбердиева**

Заместитель председателя научного семинара при разовом Учёном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время на мировом текстильном рынке высоким спросом пользуются смесовые ткани, состоящие из синтетических и натуральных волокон, и изделия из них, которые занимают одно из лидирующих позиций среди продукции текстильной и легкой промышленности. Этому способствует ряд преимуществ таких материалов по дизайну, физико-механическим и эксплуатационным свойствам. В частности, ткани из смеси хлопколавсановых волокон широко используются в практике швейного и бытового текстиля благодаря высоким гигиеническим свойствам хлопка и высоким механическим свойствам полиэфирного волокна. При этом важно найти решение проблем нивелирования различий в механизме взаимодействия натуральных и синтетических волокон с молекулами красителей в смесовых тканях.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на создание и модификацию существующих текстильных красителей, в том числе создание экологически чистой технологии химической отделки текстильных полотен из смесовых волокон с использованием красителей на основе природного сырья. В связи с этим особое внимание уделяется созданию нового класса красителей, которые в одинаковой степени окрашивают природные и синтетические волокна, внедрению одноступенчатой технологии крашения, достижению высокой интенсивности и стабильности цвета при сохранении свойств различных волокон, сохранению колористических характеристик после мокрых обработок. Таким образом, большое значение в решении существующих проблем приобретает переход от сложных, многостадийных технологий с использованием синтетических красителей и многочисленных химических реагентов к более простым технологиям с использованием природных биоразлагаемых веществ.

В нашей Республике реализуются комплексные мероприятия, направленные на организацию текстильных кластеров и новых производств от первичной переработки до готовой продукции, привлечение местных и иностранных инвесторов, организацию производства широкого спектра высококачественной текстильной продукции, ее локализации, а также на повышение экспортного потенциала местных производителей, и достигаются определенные результаты. Кроме того, большое внимание уделяется созданию крупных современных предприятий по производству химических волокон и смесовых тканей на их основе. Задачи по обеспечению ускоренного развития текстильной промышленности республики, расширению производства высококачественной и конкурентоспособной готовой продукции, дальнейшему ее продвижению на крупные зарубежные рынки сбыта, указаны в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы<sup>1</sup>. При решении этих задач, в том числе, особое значение имеет создание совмещенной, одноступенчатой

---

<sup>1</sup> Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии Развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”.

